

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

2024/3-SON  
ILOVA TO'RPLAM

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

|  |     |
|--|-----|
| <b>B.Sh.Shermuhammadov, G.Mirzaaxmedova</b>  |     |
| Bo'lajak tarix o'qituvchilarida analitik tafakkurni rivojlantirish texnologiyasi xorij<br>olimlarining tadqiqotlarda.....  | 17  |
| <b>B.Q.Qurbanova</b>   |     |
| Ta'llimning zamonaviy globallashuv va axborotlashuv sharoitida rivojlanishga doir qarashlar ....   | 22  |
| <b>S.M.Zokirova, M.R.Maxkamov</b>  |     |
| O'zbekistondagi ta'llimi tojik tilida olib boradigan maktablarda boshlang'ich sinf<br>o'quvchilariga davlat tilini o'qitish jarayonida monolog va dialogning o'rni .....       | 27  |
| <b>G.I.Yuldasheva, O.M.Mirzaxamdamova</b>  |     |
| Sotsiologik tadqiqotlarda dasturiy ta'minot va Ibm Spss dasturidan foydalanish omillari.....   | 33  |
| <b>Sh.A.Ro'zaliyev</b>   |     |
| Informatika turkum fanlarini o'qitishda geymifikatsiyadan foydalanish bosqichlarini<br>axborotlarni qayta ishlash va uzatish asosida tashkil etishning metodik jihatlari ..... | 40  |
| <b>A.R.Abdullayeva</b>   |     |
| Nikoh yoshi - oila barqarorligini ta'minlashning ijtimoiy psixologik omili .....   | 43  |
| <b>N.U.Alijonov</b>  |     |
| Ta'llim sohasidagi rahbarlarning psixologik salomatligini tadqiq etish.....  | 49  |
| <b>M.Y.Atadjanov</b>   |     |
| Mahalla – milliy identiklilikka tahdidlardan himoya omili .....  | 54  |
| <b>N.N.Ahmadjonov</b>  |     |
| Ijtimoiy psixologiyada shaxsiy qadriyatlarini aniqlash tizimi.....   | 60  |
| <b>M.A.Djalalova</b>   |     |
| Maktabgacha yosh davri bolalarining psixologik salomatligining empirik tahlili .....   | 65  |
| <b>N.A.Ergasheva</b>   |     |
| Psixologik salomatlik hamda uning mezonlari.....   | 69  |
| <b>Sh.K.Mamajonova</b>   |     |
| O'smirlarda addiktiv xulq shakllanishining ijtimoiy-psixologik omillarini empirik o'rganish .....  | 73  |
| <b>D.M.Mo'minov</b>  |     |
| Ommaviy axborot vositalaridagi manipulyativ omillarni inson ongiga tasirini o'rganish .....  | 81  |
| <b>D.M.Nuralieva</b>   |     |
| O'zbek oilalarida oila qurish motivlarini o'rganishda empirik tadqiq etilganligining<br>ijtimoiy-psixologik xususiyatlari .....  | 87  |
| <b>R.S.Nuriddinov</b>  |     |
| Bo'lajak pedagoglar psixologik salomatligiga ta'sir etuvchi omillar.....   | 92  |
| <b>M.J.Rajabov</b>   |     |
| Oilaviy munosabatlarda transakt rollar va ularning tahlili .....   | 96  |
| <b>F.S.Soliyev</b>   |     |
| Zamonaviy ta'llim muhitida psixologik xavfsizlik va ijtimoiy-madaniy xavfsizligi indeksini<br>oshirishning psixologik mexanizmlari.....  | 100 |
| <b>Sh.A.Usmonov</b>  |     |
| Oilada bolaning o'zini anglashida ota-onas shaxsining roli .....   | 106 |
| <b>M.B.Yuldasheva</b>  |     |
| Yolg'izlik hissining ifodalananish xususiyatlari .....   | 111 |
| <b>G.S.Yunusova</b>  |     |
| O'quvchilarni kasb–hunarga yo'nalganligini psixologik tahlili .....  | 116 |
| <b>M.S.Zakirova</b>  |     |
| Bolada shaxs fazilatlarini shakllanishida "Men" konsepsiyasining o'rni .....   | 121 |
| <b>H.A.G'anieva</b>  |     |
| Maktab o'quvchilarining kasb tanlashga bo'lgan motivlarini ijtimoiy-psixologik xususiyatlari....   | 128 |
| <b>Л.Ю.Абдукадирова, Д.В.Миронов</b>   |     |
| Интернет-зависимость школьников, как фактор снижения показателей в<br>исследованиях PISA .....   | 134 |



УО'К: 301.085:15

**O'SMIRLARDA ADDIKTIV XULQ SHAKLLANISHINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK  
OMILLARINI EMPIRIK O'RGANISH**

**ЭМПИРИЧЕСКОЕ ИЗУЧЕНИЕ СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ  
ФОРМИРОВАНИЯ АДДИКТИВНОГО ПОВЕДЕНИЯ У ПОДРОСТКОВ**

**EMPIRICAL STUDY OF SOCIO-PSYCHOLOGICAL FACTORS IN THE FORMATION OF  
ADDICTION BEHAVIOR IN ADOLESCENTS**

Mamajonova Shoxista Kamoldinovna 

Farg'onan davlat universiteti, psixologiya kafedrasи o'qituvchisi

*Annotatsiya*

*Ushbu maqolada o'smirlik yoshidagi o'smir yigitlar va qizlarda addiktiv xulq shakllanishining ijtimoiy-psixologik omillari, o'smirlik davri avtonomiyalari, subyektiv yolg'izligi, emotsiyonal xayrixohligi va addiktiv xulq o'tasidagi o'zaro bogliqligining psixologik mohiyati ilmiy tadqiqot predmeti sifatida ethnopsixologik jihatdan alohida o'rganilan. Addiktiv xulqning paydo bo'lishiga sabab bo'luvchi zaif toifaga ota-onalar tomonidan ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ularni qabul qilish va e'tibor berish uchun zarur resursga ega bo'lмаган o'smirlar kiradi. Bu yerda addiktiv hulq ijtimoiy tanqisliklarni qoplash shakli va travmatik voqelikdan ochish variantiga aylanadi. Addiktiv xulqqa moyil o'smirlar o'quv faoliyatida sezilarli darajadagi qiyinchiliklarga uchayadi, o'quv faoliyatidagi qiyinchiliklarni ularni muammolardan bog'liq addiktiv xulqqa tomon ochishiga majbur qiladi, bu esa o'rganishdagi yanada katta muvaffaqiyatsizlikning kuchayishiga olib keladi. Tashqi va ichki qarama-qarshiliklar, addiktiv xulqni kuchaytiruvchi omil sifatida izohlangan.*

*Annotatsiya*

В данной статье отдельно изучены социально-психологические факторы формирования аддиктивного поведения у юношей и девушек подростков, психологическая природа взаимосвязи подростковой автономии, субъективного одиночества, эмоциональной симпатии и аддиктивного поведения как предмет этнопсихологического научного исследования. Подростки, не обладающие необходимыми ресурсами социальной поддержки, принятия и внимания со стороны родителей, относятся к уязвимой группе, вызывающей возникновение аддиктивного поведения. Здесь аддиктивное поведение компенсирует социальные формы и становится вариантом ухода от травмирующей реальности. Подростки, склонные к аддиктивному поведению, испытывают значительные трудности в учебе, а академические трудности заставляют их избегать зависимого поведения, связанного с проблемами, что приводит к более серьезным неудачам в обучении. Внешние и внутренние конфликты объясняются как фактор, усиливающий аддиктивное поведение.

*Abstract*

*This article separately studies the socio-psychological factors in the formation of addictive behavior in adolescent boys and girls, the psychological nature of the relationship between adolescent autonomy, subjective loneliness, emotional sympathy and addictive behavior as the subject of ethnopsychological scientific research. Adolescents who do not have the necessary resources of social support, acceptance and attention from their parents belong to a vulnerable group that causes the emergence of addictive behavior. Here, addictive behavior compensates for social forms and becomes an option for escaping traumatic reality. Adolescents with addictive behavior experience significant academic difficulties, and academic difficulties cause them to avoid addictive problem behaviors, resulting in more severe learning failures. External and internal conflicts are explained as a factor that enhances addictive behavior.*

**Kalit so'zlar:** Addiktiv xulq, ichki qarama-qarshilik, emotsiyonal xayrixohlik, alkogolizm, subyektiv yolg'izlik, diniy yonalganlik, televizorga qaramlik

**Ключевые слова:** Аддиктивное поведение, внутренний конфликт, эмоциональный фаворитизм, алкоголизм, субъективное одиночество, религиозное рвение, телевизионная зависимость

**Key words:** Addictive behavior, internal conflict, emotional favoritism, alcoholism, subjective loneliness, religious zeal, television addiction

**KIRISH**

Jahon aholisining ko'pgina qismini o'smirlar tashkil etib ularning ayrimlarida o'rtaida o'g'rilik, talonchilik, qotillik, firibgarlik, transport vositasini olib ochish va boshqa holatlarning jamiyatga salbiy ta'sir etishi yuz berishini oldini olish masalalariga alohida e'tibor qaratish

dolzarblashib bormoqda. Jahon sog'lijni saqlash tashkiloti (World Health Organization) tomonidan berilgan ma'lumotlarga ko'ra, «Dunyo bo'yicha har yili 10 -17 yoshdagi yoshlar orasida 200 minga yaqin qotillik, talonchilik jinoyati sodir etiladi va ushbu xulq sabablarini aniqlash butun dunyo mutaxassislari tomonidan dolzarb muammo sifatida o'rganiladi»<sup>1</sup>. Bu borada o'smirlarda addiktiv xulq-atvorni shakllanishida ijtimoiy-psixologik omillarning o'rnini aniqlash, ulardagi addiktiv xulqni kelib chiqish omillariga sabab bo'lувchi ijtimoiy-psixologik omillar va addiktiv xulq egalaridagi shaxsiy sifatlarni o'zgarishlari bilan bog'liq masalalar yechimini aniqlash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekistonlik psixolog olimlar N. M. Dalimova, N.G.Kamilova, N.Sh.Mullaboyeva, F.F.Rasulova, I. I.Raximova, N.I.Xalilova va boshqalar o'smirlarda deviant xulqning ko'rinishlari, kompyuterga tobelik va addiktiv xulqning psixologik sabablari, salbiy oqibatlari hamda ularni jamiyatda o'z o'rinalarini topishlariga ta'siri masalalari bir qator psixologik tadqiqotlarda o'rganilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi olimlaridan S.A.Belicheva, V.Fedosenko, A.G.Gresov, Ya.N.Ivanov, R.Kochyuna, R.V.Ovcharova V.F.Pirojkov, L.M.Semenyuk, N.Yu.Sinyagina, I.V.Vachkov,V.I.Volkov,M.I.Yenikeev, Yu.I.Yurichka, Ye.D.Zmanovskayalar tomonidan deviant xulqi o'smirlarga ijtimoiy-psixologik yordam ko'rsatish va ularning harakatlarini korreksiya qilish bilan bog'liq masalalari, Yu.L.Arzumanov, A.I.Donsov, R.V.Fomina, A.D.Glotochkin, Yu.A.Kleyberg, A.Ye.Lichko,M.V.Lvova,A.A.Rean va A.V.Shuvalovlar tomonidan esa o'smir yoshdagi o'quvchilarda xulqi og'ishganlik va addektiv xulq shakllariga oid muammolar keng qamrovli tadqiq etilgan.

Xorij olimlaridan A.Bandura, G.Bekker, N.P.Dubinin,E.Dyurkgeym, E.Erikson, Z.Freyd, E.Fromm, P.B.Ganushkin, G.Kayzer,Dj.Kelli, E.Krechmer, V.N.Kudryavsev, Ch.Lomborzo, R.Merton,S.Miller, E.Saterland, N.Smelzer, U.Sheldon, G.Shnayder, B.Xolist, K.Yunglar tomonidan deviatsiya masalalari ilmiy tadqiq etilgan.

Lekin psixologiyada o'smirlik yoshidagi o'smir yigitlar va qizlarda addiktiv xulq shakllanishining ijtimoiy-psixologik omillari, o'smirlik davri avtonomiyalari, subyektiv yolg'izligi, emotsional xayrixohligi va addiktiv xulq o'rtasidagi o'zaro bogliqligining psixologik mohiyati ilmiy tadqiqot predmeti sifatida etnopsixologik jihatdan alohida o'rganilmagan.Biz o'z tadqiqotimizda O'zbekiston sharoitida o'smirlik yoshidagi o'smir yigitlarva qizlarda addiktiv xulq shakllanishining ijtimoiy-psixologik omillarini aniqlash hamda ularni oldini olish yuzasidan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishni maqsad qilib olganimiz. Maqsad asosida o'smirlik yoshidagi o'smir yigitlar va qizlarda addiktiv xulqni keltirib chiqaruvchi ijtimoiy-psixologik omillarini o'rnini aniqlash vazifasi belgilangan.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Addiktiv xulq g'oyasi ko'pchilik tomonidan biron modda yoki faoliyatga qaramlik [4] deb ta'riflanadi. Addiktiv xulq mavzusining ilmiy rivojlanishi 1818 yilda Brill-Krammer tomonida alkogolizm misolida o'rganilgan.U alkogolizmning surunkali shakli bilan bog'liq patologik sharoitlarni batafsil tasvirlab bergen [2]. Tarixiy manbalarda addiktiv xulqni tizimli, xalqaro ilmiy o'rganishning rasmiy boshlanishi 1884 yilda, birinchi navbatda Buyuk Britaniyada, keyin AQSh va Avstraliyada patologik qimor, alkogolizm va giyohvandlikka qarshi kurash kabi sabablar bilan bog'lanadi.Dastlabki natijalar "British Journal of Addictions" jurnali nashr etila boshlandi [3]. Yigirmanchi asrning 90-yillardan boshlab, addiktiv xulq fenomenini yangi "texnologik" nuqtai nazardan o'rganish boshlandi. 1995 yilda britaniyalik addiktolog Mark Griffiths (Mark D.Griffiths)"Texnologik qaramliklar" [5] maqolasini nashr etadi, u erda u o'yin avtomatlarini faol o'ynaganlarning klinik ko'rinishida psixofaol moddalarni ishlataladiganlar bilan bir xil alomatlarga ega ekanligini ta'kidlaydi [5].Griffits boshqa texnologik qurilmalardan (kompyuterlar, televizor pristavkalari, elektron simulyatorlar, elektron stol o'yinlari va boshqalar) ba'zi foydalanuvchilarda ham xuddi shunday belgilar borligini ta'kidlaydi [5].Ulardagi bu alomatlar sirt faol moddalardan foydalanish bilan bog'liq emas edi. Bu Griffitsni ilmiy muomalaga "kimyoviy bo'lImagan (xulq-atvor) qaramliklar" atamasini kiritishga undadi [5].Griffits tadqiqotlarni davom ettirar ekan[6], alkogolizmga, giyohvandlikka va azart o'yinlarga xos bo'ligan klinik belgilar aholining ma'lum bir qismida va eng keng tarqalgan faoliyat shakllariga nisbatan, agar bu faoliyat quyidagi mezonlarga javob bersa to'liq namoyon bo'lishini ta'kidlaydi [6]:

1. Ochiq raqobat bilan bog'liq emas;

<sup>1</sup> World Health Organization.Health Topics.Violence.Accessed, July 27, 2019 – P.87

## PEDAGOGIKA

2. Kuniga kamida bir soat vaqt olishi kerak;
3. Oddiy, maxsus intellektual qobiliyatlarni talab qilmasligi kerak;
4. Yakka o'zi bajarish oson bo'lishi va boshqa odamlarning mavjudligi yoki yordamini talab qilmasligi kerak;
5. Faoliyatni amalga oshiruvchi shaxs uchun u qandaydir muhim qiymatga (jismoniy, aqliy, ma'naviy) ega bo'lishi kerak;
6. Faoliyatni bajaruvchi, bajarilgan faoliyat natijasiga erishishda qat'iyatlari bo'lib, u shaxsiy yutuqlarida, shaxsiy rivojlanishida sezilarli darajada oldinga siljishiga yordam beradi va qobiliyatlarini (jismoniy, aqliy, ma'naviy) rivojlantiradi, deb o'yaydi;
7. Faoliyat o'z xatti-harakatlarini tanqid qilish darajasining pasayishi bilan birga kechadi.

Griffits ta'kidlashicha, shbu mezonlarga javob beradigan faoliyatning turli shakllarini kuzatish, taqqoslash va tahlil qilish, bunday faoliyatni amalga oshiruvchi shaxslarning xatti-harakatlarida oldingi ishlarda keltirilgan "Kimyoviy bo'lмаган 10 ta simptomatik" belgilari qayd etilgan. Bu belgilar bundan avval qilingan R.I.F.Braun va P.Karneslarning izlanishlarida keltirilgan:

1. Xulq-atvorini nazorat qilishni yo'qotishi;
2. Faoliyat har xil turdag'i zararlarni keltirib chiqaradi;
3. Jiddiy oaqibatlarga qaramasdan o'zini to'xtata olmaslik;
4. Hayoti va sog'lig'i uchun xavfli xatti-harakatlarga doimiy intilish;
5. Faoliyatni cheklash yoki to'xtatish uchun muvaffaqiyatsiz urinishlar;
6. Addiktiv xulqdan kurashish mexanizmi sifatida foydalanish;
7. Faoliyatga borgan sari ko'proq vaqt sarflash, chunki avvalgi faoliyat darajasi endi eterli darajada qoniqish keltirmaydi;
8. Faoliyat bilan bog'liq barcha narsalarga nisbatan kayfiyat va hissiyotlarida eskin o'zgarishining paydo bo'lishi;
9. Harakatga qancha vaqt sarflansa, undan dam olish uchun shunchalik ko'p vaqt talab etiladi;
10. Faoliyati uchun muhim ijtimoiy, kasbiy va shaxsiy masalalarga e'tibor bermaslik [6].

Griffits ushbu alomatlar asosida turli xil faoliyat turlarini kuzatish, tahlil qilish va solishtirish, asosida, nihoyat kimyoviy bo'lмаган (xulq-atvor) qaramlik fenomenini tasdiqlaydi va ularning umumiy xususiyatlarini aniqlaydi:

1. Faoliyatdan zavq olish;
2. Faoliyatning intensivligi va davomiyligini oshirishni talab qiluvchi tolerantlikni oshirish;
3. zo'rayish sindromining mavjudligi;
4. Doimiy addiktiv xulqli inson va addiktiv xulq rivojlanishidan avvalgi shaxs o'rtaсидagi ziddiyatning paydo bo'lishi.

Addiktiv xulqning yangi shakllarining paydo bo'lishini elektron texnologiyalarning rivojlanishi bilan, ayniqsa Internetning rivojlanishi va uning ko'plab imkoniyatlari bilan bog'lab, ilmiy-texnikaviy inqilobning yangi to'lqini va global axborotlashtirish bilan bog'liq holda, Griffits 2000-2000-yillarda, 2005-2010-yillarda axborotlashtirish jarayonlari addiktiv xulqning soni va o'zgarishi faqat ortishini bashorat qilgan [7].

Uzoq olib borilgan tadqiqotlardan so'ng, Griffits materiallarining nashr etilishi addiktiv xulq muammolariga ilmiy qiziqishning oshishiga yordam berdi. Braun, Karnes va Griffitsning birgalikdagi ishlanmalari patologik qimor o'yinlari va psixofaol moddalarga qaramlik boshqa tabiatga ega va bir xil uslubdagi hodisalar emas, degan ilgari hukmon bo'lган fikrni o'zgartirdi [3]. Addiktiv xulqqa doir turli fenomenologik tadqiqotlari faol o'tkazila boshlandi.

O'smirlilik davriga xos o'zgarishlar va xulqida uchrashi mumkin bo'lган deviant xulq shakllari muammosi Ozbekistonlik tadqiqotchi olimlar tomonidan ham o'rganilgan.

O'zbekistonda olib borilgan o'smirlilik davridagi bolalarni o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlardan yana biri N. M. Dalimova tomonidan olib borilgan "Kompyuter o'yinlariga tobe o'smirlaming psixologik diagnostikasi va korreksiysi xususiyatlari" mavzuidagi tadqiqot ham qiziqish uyg'otadi. N. M. Dalimovaning tadqiqotlarida, kompyuter o'yinlariga tobe o'smirlar oilada, shaxslararo munosbatlarda, ijtimoiy muhitga moslashishda, maktabda birmuncha qiyinchiliklarga duch kelishi o'rganilgan. Shuningdek, muallif bolalar kompyuterdan oddiy kunlari 2 soatdan ortiq, dam olish kunlari 3 soatdan ortiq foydalanmasligi zarurligini ta'kidlagan. O'smir o'ynayotgan

o'yinlarda aqliy rivojlantiruvchi va mantiqiy o'yinlarning ko'proq bo'lishi maqsadga muvofiqligini ta'kidlagan [1].

Raximova Indira Igorevna (2018) "Kompyuter o'yinlariga tobeklikning psixologik xususiyatlari" mavzusida turli xil yoshdagi o'quvchilar kompyuter o'yinlariga tobekligining psixologik xususiyatlarini aniqlash va uning oldini olish bo'yicha psixologik mexanizmlarini takomillashtirishga oid tadqiqot ishlarini olib borganlar. turli yoshdagi kompyuter o'yinlariga tobe o'quvchilarning shaxslararo munosabatlari, oilaviy munosabatlari, motivasion sohasi xususiyatlariva ularning tobek darajalari ochib berilgan;

kichik mакtab yoshidagi o'quvchilar, o'smir va ilk o'spirinlar kompyuter o'yinlariga tobekligining motivasion va muhitga moslashuv xususiyatlari, oilaviy munosabatlarning ijobjiy muhit, xavotirlik, nizolashuvchanlikkabi ta'sir etuvchi omillari aniqlangan;

O'quvchilarning kompyuter o'yinlarga tobekligi profilaktikasi va korreksiyasiga doir kompyuter o'yinlariga tobek psixokorreksiysi dasturi hamda mакtab psixologlari, ota-onalar uchun tavsiyalar ishlab chiqilgan, kompyuter o'yinlariga tobeklikning individual hamda ijtimoiy-psixologik xususiyatlari tizimi shakllantirilgan.

Liliya Alievna Nigmatulina (2019) kompyuterga tobeklikning shaxs xarakterologik xususiyatlariga ta'sirini tadqiq etgan bo'lib, unda talaba yoshlardagi kompyuterga tobeklikning gender va yosh, shaxsilik xususiyatlari o'rtasidagi bog'liqlik komponentlari aniqlangan.

F.F.Rasulova o'smirlarda agressiv xulq namoyon bo'lismida mikroyosh dinamikasini aniqlagan. Tadqiqotlardan aniqlanishicha, ota-onaning tarbiya uslubi va agressivlik orasida musbat bog'lanish bor. "Qabul qilish va "kooperatsiya" munosabatlari agressivlik shakllaridan jismoniy agressiya, shubhalanuvchanlik, aybdorlik hissi va aggressiyaning umumiyo ko'rsatkichlarini oshiradi va aksincha "avtoritar giper ijtimoiy" tarbiya uslubida jismoniy agressiya, shubhalanuvchanlik, aybdorlik hissi, dushmanlik munosabati kabi ko'rsatkichlami kamaytiradi [12].

O'smirlarda stress holatidan keyingi psixologik xususiyatlami tadqiq etgan G. V. Xruhnova jarohatdan keyingi stress holati belgilari, jarohatdan so'nggi stress holatining tarqalganligi, psixologik jarohatni boshdan o'tkazgan o'smirlardagi boshqa psixik buzilish va shaxsiy og'ishishning ifodalanishiga e'tiborini qaratib, jinsiy belgilari bo'yicha stressli holat dinamikasining psixologik xususiyatlarini yoritib beradi.

O'smirlar guruhiда o'zini-o'zi psixologik muhofaza qilish jarayoniga e'tiborini qaratar ekan, E. M. Muxtorov o'smirlardagi o'zini-o'zi psixologik muhofaza qilish haqidagi tasavvurlaming shakllanishi eng avvalo ulardagi mакtab hayotiga, o'zini o'zi baholashga, shaxslararo umumiy muloqotga bog'liq bezovtalik me'yorlariga, shuningdek, o'smirlar faolligini ta'minlovchi xotirjamlik, g'ayrat-shijoatlilik, hissiy ko'tarinkilik, o'z o'ziga ishonchlik sifatlariga mutanosiblilik yoki nomutanosiblik ko'rsatkichlarining namoyon etilishi bilan bog'liqligini ko'rsatadi [11]. Muallif o'smirlardagi o'zini o'zi adekvat hissiy baholash va ijtimoiy vaziyatga bog'liq me'yoriy bezovtalik motivatsiyasi ko'rsatkichlariga psixologik muhofaza mezonlari sifatida qaraydi.

Deviant xulq-atvorli o'smirlarda o'z-o'ziga baho berishning o'ziga xos xususiyatlari masalalari N. G. Kamilova ishlarida yoritilgan bo'lib, ijtimoiy maqbul xulq-atvoni ta'minlashda yordam beradigan o'z-o'ziga baho berishning asosiy xususiyati o'ziga bo'lgan emotsional-qadriyatli munosabatni belgilovchi, kongruentlik va o'zo'zini anglash bilan xarakterlanuvchi konstruktivlik ekani ta'kidlanadi. Deviant xulq-atvorli o'smirlarda esa destruktiv o'z o'ziga baho berish xos bo'lib, bu holat ulaming shaxslararo munosabatlar jarayonida o'z o'rini topishiga to'sqinlik qiladi, turli nizolami vujudga keltiradi va shaxsdagi xulqiy buzilishlarga sabab bo'ladi [8].

O'smir xulq-atvoridagi salbiy o'zgarishlar sabablarini ijtimoiy omillar bilan bog'lagan A. T. Kadirova o'smirlarda oilaviy nizolar to'g'risidagi ijtimoiy tasavvurlaming shakllanishida oila muhitining, xususan, ota onalaming o'zaro munosabatlari, ularning farzand tarbiyasidagi mas'uliyati hamda har bir olla a'zosining ijtimoiy psixologik mavqeい, oilaviy munosabatlarga tayyorlik xususiyatlari muhim ahamiyat kasb etishini e'tirof etadi. Shuningdek, o'smirlarda aniqlangan nizokashlik to'g'risidagi tasavvurlar mohiyatan oiladagi o'zaro munosabatlarga, nafaqat ota-ona bilan, balki aka-ukalar, opa-singillar o'rtasidagi muomala xarakteriga ham bog'liq ekanligini ta'kidlaydi [10].

N.I.Xalilova tomonidan "O'smirlik davrida o'zini o'zi nazorat qilish shakllanishining psixologik xususiyatlari" mavzuidagi ilmiy tadqiqoti ham e'tiborga molik. Tadqiotlarda aniqlanishicha, o'smirlik davrida mustaqil fikr, mustahkam e'tiqod va dunyoqarash shakllanganligi ularda axloq sohasida o'zini o'zi nazorat qilishning rivojlanishiga olib keladi va bu ko'proq ijtimoiy xulq-atvorlar,

## PEDAGOGIKA

munosabatlarda, o'zini tuta bilish hamda javobgarlikni his qilish, mustaqillikka intilish, axloqiy qarashlaming kengayishida yaqqol ko'zga tashlanadi [9].

N.Sh.Mullaboyeva tadqiqotlarida o'smirlarda yolg'izlik hissining psixokorreksiyasi bo'yicha tadqiqotlar olib borgan. Tadqiqotda aniqlanishicha, muloqotdagi uquvsizlik, o'smiming guruhga moslasha olmasligi yolg'izlikni keltirib chiqaruvchi determinantlardir.

Afsuski, addiktiv xulqning kimyoviy va kimyoviy bo'limgan shakllarining sur'ati o'sishda davom etmoqda. Addiktiv xulqning paydo bo'lismiga sabab bo'lувchi zaif toifaga ota-onalar tomonidan ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ularni qabul qilish va e'tibor berish uchun zarur resursga ega bo'limgan o'smirlar kiradi. Bu yerda addiktiv hulq ijtimoiy tanqisliklarni qoplash shakli va travmatik voqelikdan qochish variantiga aylanadi. Addiktiv xulqqa moyil o'smirlar o'quv faoliyatida sezilarli darajadagi qiyinchiliklarga uchayadi, o'quv faoliyatidagi qiyinchiliklar ularni muammolardan bog'liq addiktiv xulqqa tomon qochishga majbur qiladi, bu esa o'rganishdagi yanada katta muvaffaqiyatsizlikning kuchayishiga olib keladi. Tashqi va ichki qarama-qarshiliklar, addiktiv xulqni kuchaytiradi.

## NATIJA VA MUHOKAMA

O'smirda addiktiv xulqni shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar va ularni keyingi taqqoslash va tahlil qilish uchun individual xususiyatlarni aniqlash imkonini beradigan bir nechta test usullarini tanladik. Tadqiqotimizga Farg'ona viloyati shaxar va tuman maktablari (Farg'ona tuman 20-sonli o'rtalim maktabi va Farg'ona shaxar 28-sonli o'rtalim maktabi), Andijon viloyati (Shahrixon shahar 44-IDUM, Oltinko'l tumani 11- sonli o'rtalim maktablari)da tajriba-sinov ishlari 680 nafar 12 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan o'smirlar doirasida o'tkazildi.

13 turdag'i addiktiv xulqqa moyillikni diagnostika qilish metodikasi har bir sub'ektning addiktiv xulq darajasini aniqlash uchun har xil turdag'i addiktiv xulqqa moyillikni tashxislash orqali aniqlanadi. 13 turdag'i addiktiv xulqqa moyillikni diagnostika qilish metodikasi Lozovaya V.G va P.F. Lesgaft bilan birgalikda 2003 yilda ishlab chiqilgan. Metodikada 14 ta shkalani o'z ichiga olgan 70 ta savoldan iborat: har xil turdag'i addiktiv xulq uchun 13 ta shkala va addiktiv xulqqa umumiy moyillik uchun 1 ta shkala ajratilgan. Ushbu metodikada spirtli ichimliklarga qaramlik, televizorga qaramlik, sevgiga qaramlik, azart (qumor) o'yinlarga qaramlik, jinslararo munosabatlarga bog'liqlik, oziq-ovqatga qaramlik, diniy qaramlik, mehnatga qaramlik, dori vositalariga qaramlik, kompyuterga qaramlik (Internet, ijtimoiy tarmoqlar), chekishga qaramlik, sog'gom turmush tarziga qaramlik, giyohvandlik, umumiy tobeklikka moyilliklar aniqlanadi. Natijalar quyidagicha 5-11 ball-past; 12-18 o'rtacha; 19-25-tobelikka moyillikning yuqori darajasi talqin qilinadi.

Ushbu usul yordamida qo'lga kiritilgan natijalar 680 nafar o'smirlar misolida tahlili quyidagi 1-jadvali orqali izohlab ko'rsatildi.

1-jadval


## V.G. Lozovayaning "Tobe xulqni aniqlash" metodikasi bo'yicha jinslarning natijalar tahlili

|  | jins            | N   | Srednee | Std. otklonenie | T     |
|--|-----------------|-----|---------|-----------------|-------|
| Spirli ichimliklar istemol qilishga moyillik | o'smir yigitlar | 216 | 6,75    | 2,98            | 2,24* |
|  | o'smir qizlar   | 464 | 6,27    | 2,38            |       |
| Televizor ko'rishga tobeklik                 | o'smir yigitlar | 216 | 11,72   | 3,90            | -0,75 |
|  | o'smir qizlar   | 464 | 11,98   | 4,49            |       |
| Azart o'yinlar o'ynashga moyillik            | o'smir yigitlar | 216 | 7,46    | 2,96            | 2,20* |
|  | o'smir qizlar   | 464 | 6,93    | 2,89            |       |

\*p<0,05; \*\* p<0,01; \*\*\* p<0,001

1-jadvalda Spirli ichimliklar istemol qilishga moyillik shkalasi bo'yicha olingan natijalardan ko'rinib turibdiki, o'smir o'g'il bola va qizlarda umumiy natijalarning o'rtal arifmetik qiymatlari

o'rtaida statistik jihatdan ahamiyatli farq mavjud ( $t=2,24^*$ ;  $p<0,05$ ). Ushbu shkalada qizlarga nisbatan O'g'il bolalarda spirtli ichimliklarga moyillik yuqori darajada. Bunga sabab ijtimoiy omillar, madaniy me'yorlar va gender rollari spirtli ichimliklarni iste'mol qilishga moyillikni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Jamiyatimizda o'g'il bolalarning spirtli ichimliklarni iste'mol qilishi mumkinligini stereotip sifatida qabul qilish va qizlardagi spirtli ichimlik ichish oqibatlari bo'yicha yoshlikdan berilgan tarbiya natijasida bu masalada anglangan motivlar sabab, o'g'il bolalarda spirtli chimliklarga moyillik qizlarga nisbatan yuqori darajada ekanligi izohlanadi.



**1-rasm.V.G. Lozovayaning “Tobe xulqni aniqlash” metodikasi bo'yicha jinslarning natijalari**

Navbatdagi Azart o'yinlar o'ynashga moyillik shkalasi bo'yicha olingan natijalardan ko'rilib turibdiki, o'smir o'g'il bola va qizlarda umumiy natjalarning o'rta arifmetik qiymatlari o'rtaida statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlandi  $t=2,20^*$ ;  $p<0,05$ . Ushbu shkalada qizlarga nisbatan o'g'il bolalarda azart o'yinlarga moyillik yuqori darajada bo'lib, bunga sabab ijtimoiy gender stereotiplar, jumladan an'anaviy gender rollari ko'pincha tavakkalchilik va raqobatbardoshlikni o'g'il bolalik bilan bog'laydi. O'smir yigitlar qizlardan farqli raqobatbardoshlik, maqom va muvaffaqiyatga alohida e'tibor berishadi. Azart o'yinlarida g'alabalarning jozibasini oson va qisqa vaqtda his qilish imkonini berganligi sababli o'g'il bolalarni azart o'yinlari bilan shug'ullanish ehtimolini oshirishiradi.

Keyingi televizorga moyillik bo'yicha olingan natjalarda ( $t=-0,75$ ) o'smir o'g'il bola va qizlarda umumiy natjalarning o'rta arifmetik qiymatlari o'rtaida statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlanmadidi. Chunki televideniya ijtimoiy va iqtisodiy kelib chiqishidan qat'iy nazar, O'smir yigitlarham, qizlar ham foydalanishi mumkin bo'lgan ommaviy axborot vositalarining hamma joyda mavjud shakli bo'lib, uning oson mavjudligi, ayniqsa, smartfonlar bilan bog'lagan holda keng qo'llanilishi, ikkala jins ham televizorga moyillikni rivojlantirish uchun teng imkoniyatlarga ega ekanligini anglatadi. Maqsadli reklama va ommaviy axborot vositalarining ta'siri, reklamachilar kengroq auditoriyani qamrab olish uchun turli usullardan, jumladan, gender-neytral dasturlardan foydalangan holda, o'zlarining marketing strategiyalarini moslashtirganliklari sabab sifatida ko'rsatiladi.

## 2-jadval

**V.G. Lozovayaning “Tobe xulqni aniqlash” metodikasi bo'yicha jinslarning natijalar tahlili**

|                           | jins            | N   | Srednee | Std. otklonenie | T    |
|---------------------------|-----------------|-----|---------|-----------------|------|
| Sevib, sevilishga ehtiyoj | o'smir yigitlar | 216 | 12,68   | 5,15            | 0,14 |

## PEDAGOGIKA

|                                     |                 |     |       |      |       |
|-------------------------------------|-----------------|-----|-------|------|-------|
|                                     | o'smir qizlar   | 464 | 12,62 | 4,91 |       |
| Oziq-ovqat istemol qilishga tobelik | o'smir yigitlar | 216 | 12,31 | 4,86 | -1,86 |
|                                     | o'smir qizlar   | 464 | 13,09 | 5,24 |       |
| Diniy qarashlarning ustuvorligi     | o'smir yigitlar | 216 | 13,29 | 5,12 | 0,08  |
|                                     | o'smir qizlar   | 464 | 13,25 | 5,46 |       |

\*p<0,05; \*\* p<0,01; \*\*\* p<0,001

«Televizor ko'rishga moyillik» shkalasi bo'yicha olingen natijalarda ( $t=-0,75$ ) o'smir o'g'il bola va qizlarda umumiyl natijalarning o'rta arifmetik qiymatlari o'tasida statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlanmadidi. Chunki televideniya ijtimoiy va iqtisodiy kelib chiqishidan qat'iy nazar, O'smir yigitlarham, qizlar ham foydalanishi mumkin bo'lgan ommaviy axborot vositalarining hamma joyda mavjud shakli bo'lib, uning oson mavjudligi, ayniqsa, smartfonlar bilan bog'lagan holda keng qo'llanilishi, ikkala jins ham televizorga moyillikni rivojlantirish uchun teng imkoniyatlarga ega ekanligini anglatadi. Maqsadli reklama va ommaviy axborot vositalarining ta'siri, reklamachilar kengroq auditoriyani qamrab olish uchun turli usullardan, jumladan, gender-neytral dasturlardan foydalangan holda, o'zlarining marketing strategiyalarini moslashtirganliklari sabab sifatida ko'rsatiladi.

"Sevib, sevilishga ehtiyoj" shkalasi bo'yicha olingen natijalardan ko'rinish turibdiki, ( $t=0,14$ ) o'smir o'g'il bola va qizlarda umumiyl natijalarning o'rta arifmetik qiymatlari o'tasida statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlanmadidi. O'smirlilik - bu garmonal o'zgarishlar va kuchli hissiy tajribalar, shiddatli hissiy va ijtimoiy rivojlanish davri bo'lib, hayotning ushbu bosqichida romantik munosabatlar muhim rol o'ynaydi. Bu munosabatlar quyidagi ko'rinishlarda; vaqtinchalik munosabatlar, jismoniy yaqinlikka asoslangan sevgi, chuqurroq va mazmunli sevgi turi, emotsiyonal yaqinlik, hissiy yaqinlik, ishonch va sadoqatni o'z ichiga oladi. Bu munosabatlar o'smirlilik shaxsiyatni shakllantirish uchun juda muhim bo'lib, o'g'il bolalar ham, qizlar ham boshqalar tomonidan tan olinish, tasdiqlash va qabul qilishga intiladi. Sevib, sevilishga ehtiyoj, o'z-o'zini hurmat qilish, bog'lanish uslubi va shaxsiy ruxiy travma tarixi kabi har ikka jins uchun umumiyl omillar asosida shakllanganligi bilan izohladik.

"Oziq-ovqatga moyillik" shkalasi bo'yicha olingen natija ( $t=-1,86$ ). O'g'il bolalar ham, qizlar ham o'xshash ijtimoiy-madaniy omillarda yashayotganliklari, ikkala jinsdag'i o'smirlar stress, qayg'u yoki yolg'izlik bilan kurashish vositasi sifatida ovqatlanishdan foydalanishlari sababli o'smir qiz va o'g'il bolalarda umumiyl natijalarning o'rta arifmetik qiymatlari o'tasida statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlanmadidi.

"Diniy qarashlarning ustuvorligi" shkalasi ( $t=0,08$ ) bo'yicha o'g'il bolalar ham, qizlar ham o'xshash psixologik ehtiyojlarga ega, aksariyat ijtimoiy munosabatlarda diniy e'tiqodga kuchli urg'u beriladi. O'g'il bolalar va qizlar ko'pincha ushbu madaniy me'yordarga mos kelishi kutiladi, bu esa o'xshash darajadagi diniy tobelikka olib keladi. Aynan shu sababli o'smir O'g'il bola va qizlarda umumiyl natijalarning o'rta arifmetik qiymatlari o'tasida statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlanmadidi.

"Mehnatga moyillik" shkalasi (Trudogolizm) ( $t=-0,36$ ) jadal suratda rivojlanayotgan davlatimizda ijtimoiy bosim o'smirlarning mehnatga qaramlini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. O'smirlarda mehnatga ijobjiy munosabatni shakllantirish ularning shaxsiy va kasbiy rivojlanishining foydali va muhim jihatli ekanligi, mehnatning ahamiyatini ta'kidlash, o'smirlarga mehnatning o'z hayotidagi qiymati va ahamiyatini tushunish, o'smirlar o'z vazifalarini bajarishda ularga yo'l-yo'riq, qo'llab-quvvatlash va dalda berish ijobjiy ish muhitini yaratish, tengdoshlar o'tasida jamoaviy ish, hamkorlik va muloqotni rag'batlantirishi va ularning mehnati uchun tan olinishi, mas'uliyatlari, ishonchli va o'z vazifalariga sodiq bo'lish muhimligini tarbiya jarayonida ko'rsatilishi bilan izoxlash mumkin. Jinsidan qat'iy nazar, o'smirlarga o'qishda, maktabdan tashqari mashg'ulotlarda, keyin esa oliy ta'lim va mehnat faoliyatida raqobatbardosh bo'lishlari zarurligi tez-tez uqtirilganligi sababli, o'smir qizlar va o'g'il bolalarda umumiyl ilmiy faoliyatda yuksalish, kasbiy muvaffaqiyat, moliyaviy

barqarorlik va shaxsiy muvaffaqiyatga erishishga intiladi. Ushbu umumiy vazifa sabab, mehnatga moyillik shkalasida o'smir qizlar va o'g'il bolalarda umumiy natijalarning o'rta arifmetik qiymatlari o'tasida statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlanmadidi.

### XULOSA

Yuqoridagi empirik natijalar tahlilidan kelib chiqib quyidagicha xulosaga kelish mumkin. O'smirlarda psixologik va ijtimoiy omillar ta'sirida kimyoviy va kimyoviy bo'lмаган addiktiv xulqqa moyillik mavjud.Narkomoyillik ,spirtli ichimliklarga moyillik,tamaki maxsulotlarini chekishga moyillik shkalalari bo'yicha natijalarning past ko'rsatkichi bizni quvontirsada ,hozirda o'smirlar o'tasida turli xildagi energiya beruvchi ichimliklarga moyillik ortib borayotganligi xavotirga soladi.Energetik ichimliklar ichishning tengdoshlar ichida urf bo'lishi va zamonaviy xatti-xarakat sifatida qabul qilinishi,o'smirdagi kech uplash sabab,uyqusizlik va charchoqdan ximoyalanish istagi,salomatlikka etkaziladigan zarar haqida ma'lumotning kamligi energetik ichimliklarni o'smirlar o'tasida ommalashuviga sabab bo'lmoqda.

O'smirlar video o'yinlardan, ijtimoiy media platformalaridan yoki boshqa onlays faoliyatlardan haddan tashqari foydalanishlari, Internetda ko'p vaqt sarflashlari, doimiy aloqaga bo'lgan ehtiyoj,ijtimoiy tarmoq platformalari tomonidan taklif qilinadigan doimiy rag'batlantirish,cheksiz qulayliklarni taklif etishi bilan ko'plab o'smirlarimizda ushbu turdag'i addiktiv xulqqa moyillikning kuchayishiga sabab bo'lmoqda.Bundan tashqari azart o'yinlarga va ovqatlanishga moyillikning ortishi,o'smiraning stress, yolg'izlik yoki zerikish bilan kurashishning tobora nosog'lom yo'lini qidirayotganligidan darak beradi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M.(2017).Taqnidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T.: O'zbekiston,104 .
2. Буриева М.Р.(1987).Изучение плодовитости женщин в узбекских семьях. М.: Мысль, 142.
3. Гофман А.Г.(2003).Клиническая наркология. – М.:МИКЛОН,215.
4. Encyclopedia of Drug, Alcohol and Addictive behavior (2001) / Chief editor Rosalyn Carson De-Witt / Volume 1. Durham. North Carolina,275.
5. Griffin S.E.( 1991). Sex and love : addiction, treatment, and recovery. London: Praeger,220.
6. Griffiths M.D.(1995) Technological addiction // Clinical Psychology Forum. Vol. 76, №2,14-19
7. Griffiths M.D.(1996).Behavioral addiction: an issue for everybody?// Journal of Workplace Learning. № 3,19-25.
8. Griffiths M.D.(1999).Internet fuels other addictions // Students British Medical Journal. Vol. № 7, 428-429
9. Jie T., Yizhen Y., Yukai D., Ying M., Dongying Z., Jiaji W.(2014). Prevalence of internet addiction and its association with stressful life events and psychological symptoms among adolescent internet users // Addictive Behaviors. № 39 , 744-747. DOI: 10.1016/j.addbeh.2013.12.010
10. Змановская Е. В. Структурно-динамическая концепция девиантного поведения [Электрон. ресурс] // Вестник ТГПУ (TSPU Bulletin).
11. Karimova V.M.(2002). Psixologiya: O'quv qo'llanma. – T.: A. Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 235.
12. Miller N. V., Currie S. R., Hodgins D. C., Casey D.(2013). Validation of the problem gambling severity index using confirmatory factor analysis and Rasch modelling // International Journal of Methods in Psychiatric Research. № 22 ,245-255.
13. Perrotta G.(2020).Affective Dependence: From Pathological Affectivity to Personality Disorders: Definitions, Clinical Contexts, Neurobiological Profiles and Clinical Treatments // Health Sciences. DOI: 10.15342/hs.2020.333